

Shavkat Mirziyoyev: Turkmaniston – eng yaqin qo‘shnimiz va ishonchli hamkorimiz



O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Turkmaniston Prezidenti Serdar Berdimuhamedov tor doirada muzokara o‘tkazdilar.

Davlat rahbarlari qardosh xalqlarimiz o‘rtasidagi ko‘p asrlik do‘stlik va yaxshi qo‘shnichilikka asoslangan ikki tomonlama munosabatlarni yanada mustahkamlash masalalarini muhokama qildilar.


Siyosiy, savdo-iqtisodiy, energetika, transport-logistika, qishloq va suv xo‘jaligi sohalaridagi hamkorlikni yanada kengaytirish masalalari muzokaralarning asosiy mavzusi bo‘ldi.

Keyingi yillarda amaliy hamkorlikning barcha yo‘nalishlarida katta natijalar bo‘lgani ta‘kidlandi. Oliy darajada erishilgan kelishuvlar “yo‘l xaritasi” asosida muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda.

Ikki mamlakat hukumatlari, vazirlik va idoralari, hududlari o‘rtasida muntazam muloqotlar va sermahsul almashinuvlar olib borilmoqda.

Shavkat Mirziyoyev va Serdar Berdimuhamedov ushbu uchrashuv O‘zbekiston bilan Turkmanistonning ko‘p qirrali strategik sherikligi rivojiga yangi sur‘at bag‘ishlashiga ishonch bildirdilar.

Xalqaro va mintaqaviy kun tartibi yuzasidan batafsil fikr almashildi, jumladan, Markaziy Osiyoda hamkorlikni chuqurlashtirish masalalari muhokama qilindi.



Manba